

MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY TAMOILLARI

Qurbonova Ro‘zixon Soyibjon qizi

Andijon mashinasozlik instituti,

“Mehnat muhofazasi” kafedrası stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola mehnatni muhofaza qilishning huquqiy tamoillari va har qanday ish faoliyatida ishchilarning huquq va qonuniy himoyalashini ta‘minlashga qaratilgan qonunlarga asoslangan. Shu jumladan inson mehnatini muhofaza qilishni yaxshilash - davlatimiz amalga oshirayotgan asosiy va muhim ijtimoiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Insoning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan chora tadbirlarga asoslangan.

Annotation: This article is based on the legal provisions of labor protection and laws aimed at ensuring the rights and legal protection of workers in any work activities. Including improving the protection of human labor - is one of the main and important social tasks that our state carries out. It is based on measures aimed at maintaining the safety, health and working capacity of a person in the labor process.

Аннотация: В основе настоящей статьи лежат правовые принципы охраны труда и законы, направленные на обеспечение правовой и правовой защиты работников в любой трудовой деятельности. В том числе совершенствование охраны труда человека - одна из основных и важных социальных задач, которую выполняет наше государство. В основе мероприятий лежат меры, направленные на обеспечение безопасности человека в процессе труда, сохранение его здоровья и работоспособности.

Kalit so‘zlar: Mehnatni muhofaza qilish, huquqiy tamoillar, qonun, xavfsizlik, Mehnat qonuniyati, o‘smirlar, O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, kodeks.

Keywords: labor protection, legal regulations, law, security, labor law, adolescents, Republic of Uzbekistan, Constitution, code.

Ключевые слова: охрана труда, правовые нормы, закон, безопасность, трудовое право, подростки, Республика Узбекистан, Конституция, кодекс.

Kirish: Mehnat muhofazasi insoning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo‘llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash - profilaktika chora tadbirlari belgilab qo‘yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog‘lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo‘l qo‘ymaslik kabilar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (37-modda) mustahkamlanib qo‘yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy kafolatni amalda ro‘yobga chiqarilishiga qaratilgan aniq chora tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida” gi qonun (1993-yil 6-may)da, boshqa bir qator qonunlar va qonun osti normativ hujjatlarida belgilangan[1].

O‘zbekistonda Mehnat muhofazasi uchun katta moliyaviy mablag‘lar ajratiladi va o‘zlashtiriladi. Sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitida mehnat qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy mehnat huquqlaridan bo‘lib hisoblanadi. Mehnat muhofazasiga oid talablar va standartlar Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida ishlab chiqariladigan korxonalar va tashkilotlarning ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomalari, tarmoq yoki mingtaqaviy jamoa kelishuvlari, korxonalarining boshqa ichki normativ huquqiy hujjatlarida, muayyan soha, kasb, ish joylariga oid bo‘lgan Mehnat muhofazasi standartlarida belgilab qo‘yiladi. Mulkchilik shakli va xo‘jalik yuritish usulidan qat‘iy nazar barcha korxonalar, muassasa,

tashkilotlar o'z xodimlari uchun sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratishi, xavfsizlik texnikasi choralari ko'rishi, mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini tashkil etishi, boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi maxsus davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi. Qonunlarga, shu jumladan, Mehnat muhofazasiga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar umumiy nazorat olib boradi. Mehnat muhofazasi haqidagi qonun talablarini buzgan korxonalariga moliyaviy-iqtisodiy jazo choralari, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan esa ma'muriy-huquqiy, jinoiy javobgarliklar qo'llanishi, ular aybi bilan yetkazilgan moddiy zararlar qoplantirilishi mumkin[2].

Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy tamoillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. *Ishning o'zgarishi*: Ish shartnomasida yoki qonunlar bilan belgilangan tartibotlar asosida ishchilarning ishga qabul qilinishi, ishdan bo'shatilishi yoki ish shartnomasidagi o'zgarishlarga rioya qilinishi kerak. Bu jarayonlarda ishchilarning huquqiy himoyalashini ta'minlash uchun adolatli tartibotlarni amalga oshirish kerak.

2. *Ish vaqtining tartibi*: Ishchilar uchun ish vaqti, ish soati, dam olish vaqti, dam olish tartibi, ovqat va tushlik vaqti kabi muhim masalalar qonunlar yoki shartnomalar asosida belgilanishi kerak.

3. *Ishchilarning to'lovi*: Ishchilarning o'z ishiga nisbatan adolatli to'lovlarini ta'minlash kerak. To'lovlar adolatli hisob-kitoblarda belgilanishi va ishchilarning to'lovlarini vaqtida qabul qilinishi kerak.

4. *Ish muhofazasi va xavfsizlik*: Ish joyida ishchilarning xavfsizligi va muhofazasi uchun zarur imkoniyatlar ta'minlanishi kerak. Bu shu jumladan, ish muhitining xavfsizligi, zaruriy bo'lgan xavfsizlik vositalari va o'quv-konsultativ tadbirlar bilan ta'minlanishi kerak.

5. *Ishchilarning vakillik huquqi*: Ishchilarning vakillik huquqlari, vakillik komissiyasi yoki ishchilar ittifoqi orqali himoyalangan bo'lishi kerak. Vakillik huquqi, ish muhitida ishchilarning qonuniy talablariga rioya qilish, kelishuvlar, muammolarni hal qilish, shikoyatlarni ko'rib chiqish va boshqa masalalarni hal qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy tamoillari, ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning adolatli va barqaror bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Mehnatni muhofaza qilishning asosiy huquqiy tamoyillaridan biri – mehnat muhofazasini ta'minlash tamoyili, shuningdek xodimning mehnat muhofazasiga nisbatan sub'ektiv huquqi sifatida ham qaraladi. Aniqroq aytganda, har bir xodim xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga ega bo'lishi va ish beruvchidan ana shunday sharoitlarni ta'minlashni talab qilishga haqlidir.

Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining "Mehnatni muhofaza qilish" bobi (211-223-moddalar) va boshqa qoidalar, O'zbekiston hukumatining mehnatni muhofaza qilishga oid qarorlari, vazirliklar va idoralarning ishlab chiqarishdagi texnika xavfsizligi, sanitariya hamda gigienaga, profilaktikaga oid yo'riqnomalar, standartlar, texnikaviy shartlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, korxonalar va tashkilotlarning bevosita o'zida ishlab chiqilgan, ish beruvchilar hamda xodimlar vakillik organlari bilan o'zaro kelishib tasdiqlagan mehnatni muhofaza qilishga oid me'yoriy hujjatlar hisoblanadi. O'zbekistonning davlatlararo ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalari, O'zbekiston ishtirok etgan yoki tan olgan xalqaro shartnomalar ham mehnatni muhofaza qilishga oid qonunchilikning muhim manbalaridan hisoblanadi.

"Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'i nazar, mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'lig'i va mehnatni muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan. Fuqarolarning sog'lig'i va mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan mazkur qonunning 1-moddasida O'zbekiston

Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatni muhofaza qilinishi huquqiga ega ekani ko'rsatilgan. Mazkur qonun ishlab chiqarish sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'min etishda juda katta ahamiyat kasb etadi[3].

Mehnat muhofazasiga oid qonunlar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar va tashkilotlarga, kooperativlar, dehqon-fermer xo'jaliklarida yollanib ishlayotgan yoki a'zo bo'lgan holda mehnat qilayotgan barcha fuqarolarga, ishlab chiqarish amaliyoti davrida korxonalariga jalb etilgan o'quvchilar va talabalarga, korxonadagi ishlarga jalb etilgan harbiy xizmatchilarga, muqobil xizmatni o'tayotgan shaxslarga, shuningdek davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan boshqa ishlarga jalb etilgan barcha fuqarolar mehnatini muhofazalashga nisbatan tadbir qo'yiladi.

Mehnat qonuniyati o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga alohida ahamiyat beradi. 16 yoshga to'lmagan o'smirlar ishga qabul qilinmaydi. Ba'zi hollarda zavod, fabrika, kasaba uyushmasi qo'mitasi ruxsati bilan ishga qabul qilinishi mumkin. 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar uchun 24 soatlik, 18 yoshgacha bo'lganlar uchun 36 soatlik ish haftasi joriy qilingan. Ular uchun to'lanadigan ish haqi shu kategoriyadagi ishlarda ishlaydigan balog'at yoshidagi ishchilarning o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi kerak. O'smirlar uchun bir kalendar oy miqdorida yilning eng yaxshi davrlarida yoki o'zi xohlagan vaqtda ta'til berilishi kerak. Ularning mehnatidan tungi ishlarda, dam olish kunlarida foydalanish butunlay taqiqlanadi. Ularni sog'lik uchun zararli bo'lgan ishlarini bajarishga jalb qilish mumkin emas. 18 yoshga to'lmagan o'smir bolalarga 16 kg gacha, qizlarga esa 10 kg gacha bo'lgan yuklarni tashishga ruxsat etiladi. O'smir balog'at yoshiga yetguncha rejaga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tib turadi, zarur bo'lganda darhol xavfsiz va yengilroq ishga o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy tamoillari, ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning adolatli va barqaror bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika choralar tadbirlari belgilab qo'yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // [http:// www.Lex.uz](http://www.Lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 10.01.2018 y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
3. «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son, 17.10.2018 y., 03/18/501/2056-son.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktabrdagi
6. "Ayollarga qanday imtiyozlar berilgan", Xalq so'zi, 8.03.2020
7. 8. «O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 40-son, 1059-modda.
8. 10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 129-sonli «Mehnatni muhofaza qilish qonunining bajarilishi haqida» gi buyrug'i. 07.05.1997.
9. 11. Raximova X., A'zamov A., Tursunov T. Mehnatni muhofaza qilish. Toshkent. O'zbekiston, 2003.

10. Mukhtorjon, K., & Dilmurad, R. (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. *Universum: технические науки*, (6-6 (99)), 51-54.

11. Кабулова, Н. Д., Ходжакулов, М. Н., & Рахимов, Д. Б. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Universum: технические науки*, (7-1 (88)), 14-17.

12. Халматов, М., & Ходжакулов, М. (2023). АТМОСФЕРА ҲАВОСИНИ ЧАНГ БИЛАН ИФЛОСЛАНИШИНИ ЎРГАНИШДА НАТИЖАЛАРНИ ТАҚОСЛАШ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(6 Part 2), 96-104.

13. Khalmatov, M., & Khodjakulov, M. (2023). SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DANGEROUS AND HARMFUL FACTORS IN THE TECHNOSPHERE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 775-781.

14. Qabulova, N., & Khalmatov, M. (2023). COMPARISON OF THE RESULTS IN THE STUDY OF ATMOSPHERIC AIR POLLUTION WITH DUST. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 262-269.

15. <http://www.zarnews.com>

